



yurtining muhim tarixiy voqealari, buyuk ajdodlari, va milliy urf-odatlar haqida ma'lumot berish, ularni o'z yurtining qadriyatlariga hurmat qilishga undaydi.

O'quvchilarda vatanparvarlikni shakllantirishda ijtimoiy mas'uliyatni tarbiyalash juda muhimdir. O'quvchilarga o'z mamlakatining taraqqiyoti uchun mas'uliyatni his qilish, jamiyatdagi ijtimoiy muammolarni hal etishga hissa qo'shish, adolat, tenglik va vijdonlilik kabi axloqiy qadriyatlarni o'rgatish zarur. Bu tamoyilni qo'llash, o'quvchilarda ijtimoiy faollikni oshiradi va ularni o'zlarining yurtiga sadoqatli fuqarolar sifatida tarbiyalaydi. O'quvchilarni ko'proq jamoat ishlarida, ijtimoiy faoliyatlarda ishtirok etishga rag'batlantirish ham samarali yondashuv hisoblanadi.

Vatanparvarlikni shakllantirishda o'qituvchining o'zining shaxsiy misoli ham katta ahamiyatga ega. O'qituvchi, o'zining vataniga bo'lgan muhabbati, jamiyatga bo'lgan mas'uliyatini namoyish etishi orqali o'quvchilarga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. O'qituvchining o'z mehnatiga, vataniga, madaniyatiga bo'lgan sadoqati va ehtiromi, o'quvchilarga katta ta'sir ko'rsatadi. Shaxsiy misol orqali o'qituvchi o'quvchilarni o'z vataniga sadoqatli, mas'uliyatli va adolatli bo'lishga undaydi.

Vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirish o'quvchilarda nafaqat yurtiga bo'lgan muhabbat, balki umumbashariy axloqiy qadriyatlarni hurmat qilish hissini rivojlantiradi. Pedagogik tamoyillarni to'g'ri qo'llash orqali o'quvchilarni o'z yurtiga, millatiga, madaniyatiga hurmat va sadoqat bilan tarbiyalash mumkin. Milliy tarix va madaniyatni o'rgatish, ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish, shaxsiy misol orqali tarbiya berish, zamonaviy texnologiyalardan foydalanish va shaxsiy qadriyatlarni hisobga olish – bularning barchasi o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini shakllantirishda samarali yondashuvlar hisoblanadi. Bu tamoyillarni ta'lim jarayonida amalga oshirish, jamiyatda ma'naviy-axloqiy fazilatlarni rivojlantirishga va fuqarolik jamiyatini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shonazarov, A. (2012). *Milliy tarbiya va vatanparvarlik*. Tashkent: O'zbekiston davlat nashriyoti.
2. Raxmonov, M. (2018). *Ta'limda ma'naviy-axloqiy qadriyatlar va ularning shakllantirish usullari*. Tashkent: Fan va texnologiya.
3. Jumaniyazov, T. (2016). *Pedagogika va vatanparvarlik*. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti nashriyoti.
4. Solijonov, S. (2020). *Vatanparvarlik tarbiyasining asoslari*. Tashkent: O'zbekiston ta'limi.
5. Daminov, F. (2019). *Zamonaviy ta'lim texnologiyalarining pedagogik jarayonlarga ta'siri*. Tashkent: Ta'lim va texnologiyalar.
6. Sharipov, R. (2014). *Milliy o'qitish tizimi va tarbiya metodlari*. Tashkent: O'zbekiston Milliy Universiteti.
7. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni. (2021). O'quvchilarda ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni shakllantirishda davlatning roli va qonuniy asoslari.
8. Ma'Rifat Abdillayevna Nomanova (2023). Ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan holda talim jarayonini tashkil etish orqali o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlar ko'nikmasini shakllantirish. *Science and Education*, 4 (4), 808-813.
9. Bekberdiyeva Gulbaxor Ortig'aliyevna, & Nomanova Ma'rifat Abdullayevna. (2022). Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy odob ko'nikmalarini shakllantirish. *Fan, ta'lim, madaniyat va innovatsiya jurnali | journal of science, education, culture and innovation*, 1(3), 12–15. Retrieved from <https://www.mudarrisziyo.uz/index.php/innovatsiya/article/view/79>
10. Ma'rifat, Nomanova & Sports, Nukus. (2024). Ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar orqali o'quvchilarda vatanparvarlik tuyg'ularini rivojlantirishning nazariy asoslari.
11. Nomanova, M. A. (2023). Ta'lim jarayonida insonparvarlik tamoyiliga asoslangan holda talim jarayonini tashkil etish orqali o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlar ko'nikmasini shakllantirish. *Science and Education*, 4(4), 808–813. Retrieved from <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/5601>

PERSUAZIVLIKNING KOMMUNIKATIV VA PRAGMATIK MAZMUNI

Yigitaliyeva Zilola Muratovna

Farg'ona davlat universiteti dotsenti

E-mail: zilolayigitaliyeva5@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada persuzivlik hodisasining kommunikativ va pragmatik mazmuni tahlil qilinadi. Persuzivlik nutqning ta'sirchanlik darajasi sifatida talqin qilinib, u so'zlovchining



kommunikativ niyati orqali auditoriyani ma’lum pozitsiyani qabul qilishga yoki maqsadli harakatni amalga oshirishga undash qobiliyatini anglatishi ta’kidlanadi. Tadqiqotda persuzivlikning illokutsional va perlokutsional darajalari o’rtasidagi farq, uning argumentativlik bilan semantik munosabati, shuningdek, Aristotel tomonidan ilgari surilgan logos, ethos va pathos elementlari asosida persuzivlikning mantiqiy, etik va emotsional turlari yoritilgan. Kommunikativ-pragmatik yondashuv asosida persuzivlikning asosiy xususiyatlari — maqsadlilik, strategik rejalashtirish, baholovchanlik, kontekstga moslashuv va dialogiklik — aniqlanadi. Shuningdek, maqolada o’zbek va nemis madaniy kontekstlarida persuzivlikning lingvomadaniy xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinib, persuzivlik universal hodisa sifatida milliy madaniyat bilan uzviy bog’liq ekani ilmiy asosda isbotlanadi.

Kalit so’zlar: persuzivlik, kommunikativ-pragmatik yondashuv, illokutsional va perlokutsional daraja, argumentativlik, ritorika, ethos, pathos, logos, lingvomadaniy kontekst.

COMMUNICATIVE AND PRAGMATIC CONTENT OF PERSUASION

Yigitaliyeva Zilola Muratovna

Associate Professor, Ferghana state university

Abstract: This article analyzes the communicative and pragmatic essence of persuasiveness. Persuasiveness is interpreted as the degree of speech impact, reflecting the speaker’s ability to influence the listener through communicative intention, encouraging them to accept a certain position or perform a specific action. The study examines the distinction between illocutionary and perlocutionary levels of speech acts, the semantic relationship between persuasiveness and argumentation, and the logical, ethical, and emotional dimensions of persuasion based on Aristotle’s concepts of logos, ethos, and pathos. From a communicative-pragmatic perspective, the key features of persuasiveness — purposefulness, strategic planning, evaluativity, contextual adaptability, and dialogicity — are defined. Furthermore, the paper explores the cross-cultural aspects of persuasiveness in Uzbek and German contexts, concluding that while persuasiveness is a universal phenomenon, its realization is closely tied to national linguistic and cultural characteristics.

Keywords: persuasiveness, communicative-pragmatic approach, illocutionary and perlocutionary acts, argumentation, rhetoric, ethos, pathos, logos, linguocultural context.

КОММУНИКАТИВНО-ПРАГМАТИЧЕСКОЕ СОДЕРЖАНИЕ ПЕРСУАЗИВНОСТИ

Йигиталиева Зилола Муратовна

Доцент, Ферганский государственный университет

E-mail: zilolayigitaliyeva5@gmail.com

Аннотация: В статье рассматривается коммуникативное и прагматическое содержание феномена персуазивности. Персуазивность трактуется как степень воздействующей силы речи, выражающая способность говорящего посредством коммуникативного намерения побуждать адресата принять определённую позицию или совершить конкретное действие. Анализируются иллокутивный и перлокутивный уровни речевого акта, соотношение персуазивности и аргументативности, а также логическая, этическая и эмоциональная составляющие персуазивного воздействия на основе концепции логоса, этоса и пафоса Аристотеля. С позиций коммуникативно-прагматического подхода определяются ключевые характеристики персуазивности: целенаправленность, стратегическое планирование, оценочность, адаптация к контексту и диалогичность. В заключение подчёркивается, что, являясь универсальным явлением, персуазивность реализуется по-разному в зависимости от лингвокультурных особенностей, что особенно проявляется при сопоставлении немецкого и узбекского культурных контекстов.

Ключевые слова: персуазивность, коммуникативно-прагматический подход, иллокутивный и перлокутивный уровни, аргументативность, ritorika, этос, пафос, логос, лингвокультурный контекст.

Persuzivlik zamonaviy tilshunoslikda nutqning ta’sirchanlik darajasini anglatar ekan, u so’zlovchining kommunikativ niyati orqali tinglovchini belgilangan pozitsiyani qabul qilishga yoki ma’lum



harakatni amalga oshirishga undash qobiliyatiga ishora qiladi. Ushbu jihati bilan persuazivlik tushunchasi kommunikativ pragmatika, diskurs tahlili, ritorika va kognitiv lingvistika sohalarida kesishmasida shakllanadi.


Ayrim ilmiy tadqiqotlarda persuazivlik ishonirish va ta'sir o'tkazishning verbal usuli sifatida baholanadi va u muloqot ishtirokchilarining psixologik, ijtimoiy va madaniy xususiyatlariga asoslanishi, so'zlovchi va auditoriya o'rtasida ma'no, qadriyat va ishonch asosida o'zaro aloqa o'rnatishi ta'kidlanadi [6].

J. Searlening [5] tasnifiga ko'ra, har qanday nutq akti uch darajani o'z ichiga oladi: lokutsion, illokutsion va perlokutsion. Kommunikativ jihatdan persuazivlikning mohiyati nutqning illokutsional xususiyati bilan belgilanadi, ya'ni nutqning illokutsional darajasida so'zlovchi bajarilishi lozim bo'lgan harakatni ko'zlaydi. Perlokutsion ta'sir bosqichida esa persuazivlik namoyon bo'ladi, ya'ni tinglovchida ma'lum hissiy yoki intellektual reaksiyani hosil qiladi. Shuning uchun persuazivlik faqat til vositalariga emas, balki ularni qabul qilish jarayoniga va auditoriya kontekstiga ham bevosita bog'liqdir.

Pragmatik yondashuvda esa persuazivlik nutqiy niyat bilan chuqur bog'liqdir. Bu nutq egasining kommunikativ strategiyasini, maqsadga erishish uchun tanlangan vositalar va taktikalardan iborat majmuani ifodalaydi[7]. Persuaziv nutqda so'zlovchi nafaqat ma'lumotni uzatadi, balki o'quvchi yoki tinglovchining ongida yangi baho va e'tiqodlar shakllantirishga intiladi. Bu nuqtai nazardan, persuazivlik illokutsional niyat va perlokutsional natijaning uyg'unligi sifatida ko'riladi [4].

Zamonaviy tilshunoslikda persuazivlik tushunchasiga semantik jihatdan yaqin tushunchalardan biri sifatida argumentativlik tushunchasi ko'riladi. Yu.V.Ivlev va A.N.Baranovlar persuazivlik hamda argumentativlikning aloqasi haqida so'z yuritir ekanlar, ular argumentativlikning muloqotdagi vazifasi sifosida axborotning haqqoniyligi (ishonchliligi)ni dallilashdan iborat deb biladilar. Shu bois, persuazivlikni argumentativlikdan farqlash muhim ahamiyatga ega. Argumentatsiya mantiqiy asosga tayanadi, persuazivlik esa emotsional, baholovchi va konnotativ vositalar yordamida auditoriyani ishonirishga qaratilgan kommunikativ faoliyat hisoblanadi [3]. Shuningdek, argumentativ akt tezislar, dalillar va xulosalar ketma-ketligidan iborat bo'lgan o'ziga xos tuzilishi bilan ajralib turadi hamda argumentativ aktning illokutiv maqsadi adresatning qaror qabul qilish jarayonida uning tanloviga ta'sir qilishdan iborat" [1].

Persuazivlikda mantiqiy, emotsional va etik ma'lumotlarning uyg'unligi ko'zga tashlanadi. Bu Aristotel ilgari surgan nutqning logos, ethos va pathos elementlaridir [3]. Nutqiy ta'sir ilmining asoschisi deb tan olingan olim Aristotel o'zining “Ritorika” asarida notiqlik, notiq nutqi va uning qonuniyatlari haqida ilk ma'lumotlarni yozib qoldirgan. Unda olim ethos, pathos va logos atamalariga asoslangan va "ritorik uchburchak" g'oyasini ilgari surgan. Ushbu atamalar yunon tilidan olingan bo'lib, *ethos* “xarakter” degan ma'noni anglatadi. Bunda notiqning ishonchliligi va uning obro'si asosiy omil hisoblanadi. *Pathos* so'zi esa “hissiyot yoki azob” degan ma'noni anglatadi. Insonni harakatga undovchi har qanday tuyg'u nutqda pathos vazifasini bajarishi mumkin. “So'z yoki sabab”, deb nomlanuvchi *logos* atamasi faktlar, raqamlar va mantiqiy fikrlarni anglatadi. Aristotelning ta'kidlashicha, ushbu uchala omildan nutqda foydalanish uzatilayotgan xabarni ta'sirchanligini oshiradi.



Olimning ushbu tasnifi hozirda ham dolzarb hisoblanadi. Mazkur atamalarni persuazivlik bilan bog'lansa, ularni etik persuazivlik, mantiqiy (logik) persuazivlik va emotional persuazivlik, deb nomlash mumkin. Etik persuazivlik haqida so'z borganida, ishonchni matn yoki so'zlovchiga nisbatan shakllanishi nazarda tutiladi. Bunda uning obro'si va kompetentligi (salohiyati), ya'ni uning tajriba va malakasi, adolat,



haqqoniylik kabi ma’naviy qadriyatlarga chorlovlar hamda va’da va majburiyatlar kabi omillarni e’tiborga olish lozim. M.: *Men o’zimning 20 yillik tajribamga asoslanib ayta olamanki, ushbu usul ishonchli.*

Mantiqiy persuzivlikda esa auditoriyani ishontrish uchun dalillar, isbot va mantiqiy mulohazalardan foydalaniladi. Statistik ma’lumot va dalillar so’zlar kuchini yanada oshirish maqsadida qo’llanilsa, mantiqiy mulohazalar ishonchli argumentlar, fikrlardagi sabab-oqibat munosabatidagi mantiqiy aloqani saqlab qolish uchun zarur hisoblanadi. M.: *Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, mazkur usuldan foydalanish samaradorlikni 30% oshiradi.*

Auditoriyadan emotional javob olish maqsadida tildan vosita sifatida foydalanilsa, emotiional persuzivlik vujudga keladi. Bunday holatda qo’rquv, quvonch, hamdarlik, g’azab kabi tuyg’ularni uyg’otish uchun turli emotional so’z va ifodalardan foydalaniladi. Hissiyotlarga boy aloqani shakllantirish uchun, shuningdek, turli hangoma va hikoyalar ham so’zlansa, emotional ta’sir uchun esa obraz va metaforalar qo’llaniladi. M.: *Shunday qarordan azob chekayotgan bolalarni bir tasavvur qilinglar! Biz ularni yordamsiz qoldira olamizmi?*

Shunday qilib, persuzivlik kommunikativ-pragmatik tizimda so’zlovchi va auditoriya o’rtasida ma’no, ishonch va hissiy aloqani o’rnatish jarayonini anglatadi. U lingvistik vositalarning maqsadli tanlovi, baholovchanlik, emosional kuchaytirish va ijtimoiy qadriyatlar bilan bog’liq bo’lgan murakkab pragmatik mexanizmdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. Баранов А. Н. Лингвистическая теория аргументации (когнитивный подход). Автореф. дис. ... док. филол. наук. - Москва, 1990. - с. 48
2. Amossy, R. *L’argumentation dans le discours*. Paris: Nathan, 2000.
3. Aristotel, Ritorika. - M., 1978.
4. Austin, J. L. *How to Do Things with Words*. Oxford: Clarendon Press, 1962.
5. Searle, J. R. *Expression and Meaning: Studies in the Theory of Speech Acts*. Cambridge University Press. 1979
6. Perelman, Ch.; Olbrechts-Tyteca, L. *The New Rhetoric: A Treatise on Argumentation*. University of Notre Dame Press, Columbia, U.S.A., 1958;
7. van Dijk, T. A. *Discourse and Power*. Palgrave Macmillan. 2008
8. O’rmonjonov Azizbek Muhammadjon o’g’li. (2025). INKLYUZIV TA’LIM SHAROITIDA MUSIQA SAVODXONLIGINI SHAKLLANTIRISHDA MULTIMODAL YONDASHUVNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI. TA’LIM VA TARAQQIYOT, 4(4), 380-388.
9. R.A.Tursunov. (2025). IJTIMOYIY ONG VA MA’NAVIYAT UYG’UNLIGINING IJTIMOYIY MUHITGA TA’SIRI. ZAMONAVIY FAN: INNOVATSION YONDASHUVLAR VA YOSH TADQIQOTCHILARNING DOLZARB IZLANISHLARI, 1(1), 16-19.

IQLIM O’ZGARISHINING SHAHAR MUHITIGA TA’SIRI

A’zamova Asolatxon Shavkatjon qizi

Farg’ona davlat universiteti talabasi

Email: asalazamova970@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada iqlim o’zgarishining shahar ekologik tizimlariga, infratuzilmasiga, yashil hududlariga va aholining hayot sifatiga ko’rsatadigan ta’siri keng tahlil qilingan. Urbanizatsiya jarayonlari natijasida issiqxona effekti, havo ifloslanishi, suv ta’minoti tanqisligi va energetik yuklamaning ortishi kabi omillar o’rganilgan. Shuningdek, O’zbekiston shaharlarida barqaror rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish hamda iqlimga moslashgan boshqaruv tizimini shakllantirish bo’yicha ilmiy tavsiyalar berilgan.

Kalit so’zlar: iqlim o’zgarishi, urbanizatsiya, shahar ekologiyasi, barqaror rivojlanish, issiqxona effekti.

THE IMPACT OF CLIMATE CHANGE ON THE URBAN ENVIRONMENT

A’zamova Asolatkhon Shavkatjon qizi

Student of Fergana State University

Email: asalazamova970@gmail.com